
“KORONAVIRUSNI BIRGALIKDA YENGAMIZ”

Qo'shtepa tumanida koronavirus infeksiyasining kirib kelishi va keng tarqalishining oldini olish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xatto, tuman Kengashi deputatlari va MFY raislarining tashabbusi bilan **“Koronavirusni birgalikda yengamiz”** mavzusida aksiya tashkil etilyapti. Aksiya doirasida tumanda bir qator xayri tadbirlar tashkillanmoqda.

Tuman Kengashi deputatlari o'zlari saylangan hududlarda bo'lishib, koronavirus pandemiyasiga qarshi birgalikda kurashish uchun muntazam niqob hamda qo'lqopsiz yurmaslik, tozalikka qat'iy rioya etish yuzasidan targ'ibot ishlari olib bormoqdalar.

Deputatlar B. Madraximov va Sh. Xoshimovlar tomonidan Qayrag'och va Oqtepa MFY hududlaridagi dorixonalar, savdo do'konlarida koronavirus pandemiyasidan himoyalaniş yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi. Do'konlarda, go'sht, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxining asossiz oshib ketishiga yo'l qo'yilmaslik bo'yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirildi.





Shuningdek, yana bir deputatimiz S. Nuriddinov Katta Beshkapa MFYda bo'lib, mahalla raisi bilan hamkorlikda targ'ibot ishlarini olib bordi. Ijtimoiy ko'makka muhtoj xonadon egalariga himoya vositasi tibbiy niqoblar tarqatildi.



O'qchi MFY raisi A. Xoshimovning tashabbusi bilan mahalladagi dizinfeksiyalash ishlari yana davom etmoqda.



2020-03-26 15:48:51